O'QUVCHILARDA ONA TILIGA HURMAT VA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA O'QITUVCHINING ROLI

Qodirberganova Dinora
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi 103-guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24330701

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchi-yoshlarda o'zbek tilini qadrlash hissini uyg'otish hamda ularning ongiga millliy o'zligimizni singdirishda ustozning pedagogik o'rni va vazifalari yoritilgan. Muallif bo'lajak ona tili o'qituvchi sifatida dars jarayonida xalq og'zaki ijodi namunalari, maqollar va milliy ruhdagi matnlardan foydalanishning ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatini asoslab bergan. Tadqiqot davomida yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini boyitish, milliy o'zlikni anglash ko'nikmalarini shakllantirish kabi jihatlar ochib beriladi.Shuningdek, maqolada keltirilgan xulosalar dars samaradorligini oshirish va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ona tili o'qituvchilarga amaliy tavsiya ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: milliy o'zlik, pedagogik mahorat, yosh avlod, metodika, ma'naviy tarbiya, maqollar, tilga hurmat, hayot yo'llarimdagi tajribalar, xalq og'zaki ijodi, milliy meros, interaktiv metodikalar.

KIRISH

Dunyoga kelibmizki, tug'ilganimizdanoq eshitgan ilk qo'shig'imiz – ona tilimizda aytilgan ona allasidir. Insonning tilga bo'lgan munosabati ham, avvalo, oilada shakllanadi. Har yili mustaqilligimizni nishonlar ekanmiz o'z tilimizning borligi ham katta yutuq sifatida e'tirof etiladi. Ona tili odamzodning milliy o'zligini anglashida, dunyoqarashi va ma'naviy qiyofasining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Bola ulg'aygan sari ona tili uning tafakkuri, dunyoqarashi va atrof-muhitni anglash vositasiga aylanadi. Shu bois yosh avlodga ona tilining qadr-qimmatini anglatish, uni e'zozlash va to'g'ri qo'llashga o'rgatish ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayonda ona tili fani o'qituvchisining o'rni beqiyosdir. Chunki o'qituvchi nafaqat tilning grammatik va leksik til orqali xalqning tarixi, madaniyati, urf-odatlari va ma'naviy merosini ham o'quvchilarga yetkazadi. Milliy qadriyatlarimiz - xalqimizning asrlar davomida shakllangan tarixi, tili, urf-odatlari madaniyati va ma'naviy boyliklarining yig'indisidir. Shuningdek, milliy qadriyatlarimiz o'z-o'zidan ona tilimiz bilan birga singib ketadi. Tilimiz bo'lmasa qadimiy meroslarimiz, milliyligimiz, an'analarimiz va qadriyatlarimiz bo'lmas edi. Tilimiz o'lmas ekan, bizning ajdodlarimiz merosi, adabiyotlarimiz, oltinga teng asarlarimiz-u, ruboiylarimiz hech qachon yo'q bo'lib ketmaydi. Har bir inson biron sohaning mutaxassisi bo'lishdan tashqari o'z xalqining farzandi bo'lmog'i lozim. Yaqin o'tmishda alla bilmaydigan kelinlarni, doston eshitmagan yigitlarni yoki askiya aytib ko'ngil chigillarini yozmagan o'zbeklarni uchratish mushkul bo'lgan. Afsuski, endilikda biron odamni maqtaydigan bo'lsak, alla ayta olishini, silliq so'zlashini, askiyada qatnashishini fazilat qilib ko'rsatamiz. Demak, bugungi kunda o'zbek qadriyatlari bulog'idan suv ichgan, o'zbekona muomalani butun qalbiga singdirgan, to'ylarda, azalarda, ishboshilik qiladigan, murosasi kelishmagan taraflar o'rtasini totuvlashtiradigan o'zbeklar bir oz kamayib qolibdi-da. Xalq og'zaki ijodini, qadriyatlarini bilmay turib, o'zbekman, deyish mumkin emas. O'zbek millatiga mansub insonning o'zbekman deyishga

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

haqqi yo'q ekan, u odam xalqining yuziga oyoq qo'ygan, ota-bobolari hurmatini haqoratlagan hisoblanadi.[1.3] O'quvchi-yoshlarda ona tiliga hurmat hissini uyg'otish faqatgina qoidalar yoki grammatik qonuniyatlarni o'rgatish bilan cheklanmaslik kerak. Bunda bola tez charchaydi va darsga bo'lgan qiziqishi ham tobora so'nib boradi. Shuning uchun, zamonaviy va interaktiv metodikalardan foydalanish ham zarar qilmaydi. Dars jarayonlarida xalq ertaklarini aytish o'yinlari, dostonlar va hikmatli so'zlardan unumli foydalanish lozim. Ushbu matnlarda tilning sofligi va jozibasi namoyon bo'ladi. Ona tili o'qitishning samarali bo'lishi ko'p jihatdan uni adabiyot bilan bog'lab olib borishga bog'liq. Aslida, ona tili adabiyot darslarida ham o'rganiladi. Masalan, badiiy asarning tilini tahlil etish davomida ba'zi grammatik shakllarning uslubiy ahamiyati, sinonimlarning nutqda tutgan o'rni izohlanadi va hokazo; o'quvchilar tilning turli ifoda vositalari bilan tanishib boradilar. Badiiy asar tili bo'yicha muayyan bir izchilikka olib boriladigan ishlar o'quvchilarning so'z boyligini oshiradi va nutqini o'stiradi. Adabiy asarning tasviriy vositalari bo'yicha sinfda va undan tashqari bajarilgan ishlar haqida kengroq tushunchaga ega bo'ladilar. Ona tili ta'limi jarayonida bilim oluvchi (o'quvchi) va bilim beruvchi (o'qituvchi) faoliyatlari o'zaro qo'shilib, bir butunlik hosil qiladi.[2.7- 11] Ona tili darslarida milliy qadriyatlarni singdirish o'quvchilarda milliy g'urur, vatanparvarlik va ma'naviy immunitetni shakllantirishning eng muhim vositasidir. "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Jaloliddin Manguberdi" kabi dostonlar hamda Amir Temur va Bobur kabi buyuk siymolar hayotiga oid asarlardan foydalanish lozim. Men Xorazmdanman. Bolalik chog'larim Xorazmda o'tgan. Keyinchalik taqdir meni Samarqandga yetakladi. Esimni tanibmanki, o'qituvchim qo'limga qog'oz va qalam tutqazib "Vatan deganda nimani tushunasan? Ona tiliga muhabbat deganda-chi?" – deganlari haliyam yodimda. Bizga har darsda ona tiliga va vatanimizga hurmatda bo'lishimizni, uni har doim asrab-avaylashimizni ta'kidlab borgan. Demoqchimanki, har bitta darsda o'qituvchi vatanimizni va o'z tilimiz haqida biroz so'zlar ekan uni jon qulog'imiz bilan eshitmasdan qo'ymaymiz. O'qituvchining pedagogik mahorati shundaki, u har bir darsda o'quvchiga til shunchaki muloqot vositasi emas, balki millatning ruhi va madaniy merosi ekanligini his qildira olishi kerak. Qadimdan bizga o'rnak bo'lib kelayotgan maqollar orqali ham o'quvchilarga o'zligimizni singdirishimiz mumkin. Masalan, "Qozonga yaqinlashsang qorasi yuqar, yomonga yaqinlashsang balosi" maqolidagi asosiy fikr yomonga yaqinlashgan odamning taqdirida noxush voqealar ko'payishidan ogohlantirishdir. Lekin aslini olganda maqolning birinchi qismida ham ehtiyotkorlik belgisi aniq ko'rinib turibdi. Ya'ni xalq yosh va hali turmush tajribasiga ega bo'lmagan farzandga qozonga yaqinlashayotganda qora qurum tegishidan ehtiyot bo'lishini tavsiya qilmoqda. Ayni chog'da, og'zaki ijodimiz bilan tanishar ekanmiz, milliy taqdiriga va ijtimoiy vaziyatlarga bog'liq muhim ahamiyatga ega yangiliklar ifodalanishiga guvoh bo'lamiz.[3.10] Bundan tashqari, so'z turkumlarini o'rganishda milliy qadriyatlar bilan bog'liq gaplardan foydalanish mumkin. O'quvchilarga oila, Vatan, ona, ustoz, do'stlik, mehmondo'stlik, kattalarga hurmat kabi tushunchalar aks etgan gaplar berilib, ulardagi so'zlarning turkumini aniqlash topshirig'I beriladi. Natijada grammatik bilim bilan bir qatorda, o'quvchining ma'naviy tasavvuri ham boyib boradi. Qo'shimchasiga bolalarga o'z oilasida yoki mahallasida ko'p ishlatiladigan maqollarni yozib kelish topshirig'ini berish ham mumkin. Bunday topshiriq o'quvchini o'z oilasi va milliy muhitidagi ma'naviy merosga e'tiborli bo'lishga undaydi.

Xulosa.

O'qituvchilarda ona tiliga hurmat va milliy qadriyatlarga sadoqatni shakllantirish uzluksiz va maqsadli pedagogik jarayondir. Bo'lajak ona tili o'qituvchisi sifatida men uchun ham ushbu masala alohida ahamiyatga ega. Chunki kelajakdagi pedagogning vazifasi faqat bilim berish emas, balki

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

o'quvchining qalbida ona tiliga mehr, milliy merosga hurmat va o'zligini anglash tuyg'ularini shakllantirishga ko'maklashishdan iboratdir. Zero, ona tilini qadrlagan, o'z milliy merosini anglagan avlod kelajak taraqqiyotining muhim tayanchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Madayev Omonilla, Sobitova Tojixon. Xalq og'zaki poetik ijodi: Akad.litseylar uchun darslik\Taqrizchilar H.Boltaboyev va bosh.- T.:2010
2. A.G'ulomov, R. Sayfullayeva, M.Ernazarova, va boshq. O'zbek tilini o'qitish metodikasi.-T.:2023
3. Madayev, Omonulla O'zbek xalq og'zaki ijodi: universitetlarning Filologiya va Jurnalistika hamda pedagogika institutlarining Til va adabiyot fakultetlari uchun o'quv qo'llanma\O.Madayev; ma'sul moharrir H.Boltaboyev; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.-T.:MUMTOZ SO'Z, 2010

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.